

Date: 21<sup>st</sup> April-2026

MAQSUD SHAYXZODANING DRAMASIDA JALOLIDDIN MANGUBERDI  
OBRAZI

Azamatov Abduazim Abdusaid o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti

“Temir yo‘l transport muhandisligi”

fakulteti 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada Anushtegin Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi shaxsiyati, faoliyati va harbiy iste'dodi barcha davrlarda davlat arboblari, sarkardalar va oddiy xalq uchun qiziqarli bo'lib kelgan. O'rta asrlarning ko'plab mashhur muarrixlari bu mard ajdodimiz haqida maxsus asarlar yozishgan, tarixlarda jasoratini madh etilganligi haqida ma'lumotlar keltirildi.

**Abstract:** In the article, the personality, activity and military talent of Anushtegin Khorezmshah Jalaluddin Manguberdi have been interesting for statesmen, generals and ordinary people in all times. Many famous historians of the Middle Ages wrote special works about this brave ancestor of ours, and it was reported that his bravery was praised in the histories.

**Kalit so'zlar:** Jaloliddin Manguberdi, Anushtegin Xorazmshoh, o'zbek adabiyoti, tarixiy davr, davlat boshqaruvidagi shaxslar, saroy ichidagi fitnalar

**Keywords:** Jalaluddin Manguberdi, Anushtegin Khorezmshah, Uzbek literature, historical period, persons in state administration, conspiracies in the palace

Jaloliddin Manguberdi bugun O'zbekiston uchun afsonaviy qahramon bo'lsada, dunyo u haqida kam biladi. Uning harbiy iqtidoriga asosiy dushmani Chingizxon ham tan bergan edi. Manguberdi mo'g'ul qo'shinlari bilan bir qancha janglarda zafar qozongan holda o'limi sirli kechdi. “Sulton Jaloliddin Manguberdi” romanida bizgacha yetib kelgan tarixiy manbalardan foydalangan holda Manguberding shaxsiyatiga badiiy baho beriladi. Jaloliddin Manguberdi shaxsiyati esa nafaqat O'zbekiston, balki, Osiyo tarixida o'ta murakkab, ta'bir joiz bo'lsa, xaloskor, ozodlik uchun kurashchi sifatida shakllangan. Anushtegin Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi shaxsiyati, faoliyati va harbiy iste'dodi barcha davrlarda davlat arboblari, sarkardalar va oddiy xalq uchun qiziqarli bo'lib kelgan. O'rta asrlarning ko'plab mashhur muarrixlari bu mard ajdodimiz haqida maxsus asarlar yozishgan, tarixlarda jasoratini madh etishgan. Xonlar, sultonlar, amirlar uning savquljaysh (strategiya) va tarbiyatuljayshlarini (harbiy usul, taktika) o'z qo'shinlarida qo'llashga harakat qilishgan, harbiy akademiyalarda uning jang usullari alohida o'rganilgan. Bu sarkardaning qahramonligiga barcha hukmdorlar havas qilishgan. O'zbek adabiyotida ilk bor Jaloliddin Manguberdi obrazi Maqsud

Shayxzodaning dramasi orqali jonlangan. 1944 yilda Shayxzoda urush holatida bo'lgan xalqning kayfiyatini ko'tarishni ham maqsad qilgan bo'lsa ajab emas.



Date: 21<sup>st</sup> April-2026

Bugungi kun uchun Manguberdi milliy qahramonmi? Jaloliddin barcha davrlar uchun qahramon bo'lgan. Ayniqsa, bugungi kun nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, shubhasiz, milliy qahramon. Dini, millati va yurti uchun kurashgan shunday mard qahramon yoshlarimiz uchun ham g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Mazkur tarixiy asar bundan 8 asr muqaddam yuz bergan voqealarga asoslangan.

O'rta asrlarning ko'plab tarixchilari Anushtegin Xorazmshohlar silsilasi, davlatchiligi va tanazzuliga bag'ishlangan maxsus asarlarni yozishgan. Ular orasida eng mashhuri, shubhasiz, Shihobiddin Nasaviyning "Siyrat as-Sulton Jalol ad-Din Mengburni" ("Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti"), Alouddin Atomalik Juvayniyning "Tarixi Jahongusho" ("Jahon fotihi tarixi"), Rashiduddin Fazlullohning "Jome'u-t-tavorix" ("Umumiy tarix"), ibn al-Asirning "Al-komil fit tarix" ("Mukammal tarix"), Ziyo Bunyodovning "Anushtagin Xorazmshohlar davlati" asarlaridir. Shuningdek, Jaloliddinning yana bir munshiyasi Nuriddin Zaydariyning "Nafsat al-Masdur", Juzjoniyning "Tabaqati Nosiriy", Yoqut Hamaviyning "Mo'jam albuldan", Yosin al-Umariyning "Al-asar al-Jaloliyya", Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi", Abulg'ozixonning "Shajarai tarokima" asarlarida ham sulton Jaloliddinning tarixi qalamga olingan. Bulardan tashqari, yana ko'plab tarixlarda Jaloliddin Manguberdi haqida ma'lumotlar beriladi. Ushbu asarlarda madh etilgan Jaloliddinning ko'p qahramonliklari romanda badiiylashtirilgan. Albatta, tarixiy asarlar asosida ko'plab tarixiy filmlar ishlangan. O'ylaymanki, Jaloliddin Manguberdi obrazini kinoga olib chiqish orqali o'zbek kinosi o'zining yangi bosqichiga chiqib olishi mumkin. Jaloliddin Manguberdi obrazini kinoasarda jonlantirish, shubhasiz, o'zbek kinosini yangi sifat bosqichiga olib chiqadi. Biroq, bu masalaga kengroq rakursda yondoshish kerak. Sababi, Jaloliddinni tarixda qoldirgan jihatlar juda ko'p – u yashagan tarixiy davr, davlat boshqaruvidagi shaxslar, saroy ichidagi fitnalar, sotqinlar, musulmon dunyosida o'ziga xos o'rin tutgan xalifa Nosiridinulloh Abul Abbasning xorazmshohlarga qarshi siyosati, Chingizxonning salohiyati, bu hammahammasi bir uyg'unlikda yoritilmasa, Jaloliddinni tarix sahnasida paydo bo'lishi, fenomenal o'rni to'laqonli yoritilmasligi mumkin. Tasavvurimizda faqat bosqinchi, qonxo'r va bilimsiz Chingizxon shakllantirilgan. Lekin, aslida Chingizxon shuningdek, mohir strateg, aqlli va uddaburon siyosatchi ham bo'lgan. Jaloliddin oddiy bosqinchiga qarshi chiqmagan. Balki, davrining eng buyuk siymosiga qarshi maydonga chiqqan. Va aynan shu jihat Jaloliddinning yorqin iqtidori va salohiyati yuzaga chiqishiga sababchi bo'lgan, deb o'ylayman. Kinoasarlarda aynan shu jihatlar yoritilishi shart deb o'ylayman. Jaloliddin Manguberdi haqida oddiy tomoshabin unchalik ma'lumotga ega emas. Sulton Jaloliddin tarixi – unikal, fenomenal tarix. Roman-dilogiyaning birinchi kitobida mashhur Parvon va Sind bo'yidagi janglar berilgan. Bu jang tasvirlari tarixiy asarlarda ham shunday keladi. Albatta, tarixiy asarlarda, jumladan Nasaviyning "Siyrat"ida Parvon va Sind daryosi bo'yidagi qonli janglar qisqa bo'lsa-da hikoya qilinadi. Lekin romanda badiiylashtirilgan o'rinlar ham bor. Masalan, mo'g'ul bahodirlaridan iborat, Chingizxonning ishongan jazo qo'shini – Keshik bilan Jaloliddin Manguberding Parvon dashtida to'qnashuvi bo'lgan. Parvon jangiga qadar mo'g'ullarning bu qo'shini hech qaysi



Date: 21<sup>st</sup> April-2026

jangda mag'lubiyatga uchramagan. Asosan, jang ko'rgan tajribali navkarlardan iborat bo'lgan. Biroq, Jaloliddin ochiq jangda bu qo'shinni ilk marta tor-mor keltiradi. Bu sahna asarda batafsil yoritiladi. Yoki, shimoliy Hindistondagi Sind daryosidagi eng og'ir muhoraba. Bu savashga ham romandamaxsus boblar ajratilgan. Romanning ikkinchi kitobida Jaloliddinning xalifa Nosiridinulloh Abul Abbas va gurjilar qarshi hamda Isfaxon janglari ham keltiriladi. Bu janglarda sulton Jaloliddinning sarkardalik qobiliyati to'liq namoyon bo'ladi. Romanda o'sha davrning shafqatsiz hayotini ko'rsatish maqsadida haramga tashlangan Nuri bibi obrazi kiritilgan. Umuman olganda, tarixiy manbalarda ana shunday faktlar bormi? Nuri bibi to'qima obraz, ta'kidlab o'tganingizdek, o'sha davrning naqadar shafqatsiz bo'lganini ko'rsatish uchun kiritilgan. Shihobiddin Nasaviyning asarida sulton Alouddin Muhammad (Jaloliddinning otasi) asir olingan aslzoda shahzodalar, hokimlar va vazirlarni "Iskandar navba"sini ijro etishga majburlagani haqida ma'lumot bor. Ya'ni, sulton saroyga kirib kelayotganida aslzoda asirlar uning sharafiga navba ijro etishlari kerak bo'lgan. Iskandar Maqduniyga taqlid qilib, asirlar soni 27 taga yetkazilgan. Lekin, sulton Alouddin mo'g'ullar bosqini arafasida qochib ketadi, uning onasi malika Turkon esa o'sha asirlarning barchasini Amudaryoga cho'ktirishga buyruq beradi. Romandagi Nuri bibi ana o'sha asir hokimlardan birining qizi, ya'ni, aslzoda, lekin uni cho'ri qilib sotadilar, oxir-oqibat, malika Turkon haramiga tashlanadi. Yoki, Nasaviyning asarida Saburxon laqabli shahzoda tarixi keltiriladi. Uni ham sulton saroyiga keltiradilar. Malika Turkonni uni o'ldirtirmay o'ziga yo'l boshlovchi qilib tayinlaydi. Malika Gurganchni tark etib, Eronning ovloq bir qal'asi – Ilolga yashirinmoqchi bo'ladi. Manzilga yetgach, baribir o'sha shahzodani qatl etishni buyuradi. Bu voqealar romanning birinchi kitobiga kiritilgan. Romanda o'sha paytdagi Islom dunyosining rahbari xalifa Nosiridinulloh Abul Abbasning Chingizxon va xorazmshohlarning yana bir dushmani qoraxitoylar bilan olib borgan maxfiy yozishmalari haqida ma'lumot beriladi. Afsuski, musulmonlar yo'l boshchisi, o'sha vaqtda amiralmo'miniyn deb ulug'langan xalifa Nosiridinulloh Abul Abbas tobora kuchayib borayotgan xorazmshohlarning tiyish uchun mo'g'ullarva qoraxitoylar bilan maxfiy yozishmalar olib borgan. Buni ko'plab tarixchilar yozib qoldirishgan. Xalifa Chingizxon va qoraxitoylarni xorazmshohlar saltanatiga bostirib kirishga da'vat qilib maktublar yuborgan. Bu maktublarning bir nechtasi sulton Alouddin va Jaloliddinning qo'liga tushgan. Jumladan, sulton Alouddinning qo'shini qoraxitoylar poytaxti Bolasog'unni olganida xon devonida xalifaning maktublari topilgan. Hindistonda yengilgan Jaloliddin Forsga hozirgi Eron va Iroq hududi kelishi, ukasi Sulton G'iyosiddindan taxtni tortib olishi, Ozarbayjon, Gruziya, Armanistonni ishg'ol qilishi, yuqorida aytib o'tganimdek, Halifa an-Nosir, gurjilar va mo'g'ullar bilan janglari Isfahon jangi yoritiladi. Demak, Jaloliddinning ukasi Sulton G'iyosiddin ham katta davlatni boshqargan, Sulton G'iyosiddin hozirgi Eron va Iroq hududlarini o'z ichiga olgan davlatni boshqargan. Otasidan unga katta qo'shin meros qolgan. Ayrim manbalarda uning lashkari soni 60 mingdan ortiq deyiladi. Jaloliddin Manguberdi obrazi Sharq xalqlari orasida bosqinchilarga qarshi kurashgan shaxs sifatida ulug'lanadi. O'zbek adabiyotida ham buyuk ajdodimiz haqida ko'plab asarlar yaratilgan. Biroq, yosh bo'lishiga qaramasdan ana



Date: 21<sup>st</sup> April-2026

shunday ulug‘ inson haqida asar yozishga haddi siqqan va buni uddalay olgan Baxtiyor Abdug‘afurni yangi asar bilan tabriklayman. Tarixiy mavzuga hamma ham qo‘l uravermaydi. Baxtiyor juda ko‘plab manbalarni o‘rgandi va kitobida o‘zining ko‘zqarashlarini ifoda etdi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Yusuf Shomansur. Shayxzoda — bunyodkor shoir, T., 1972 y. - 179 b.
2. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi, T., 1999 y. – 25 b.
3. Shayxzoda Maksud. Shoir qalbi dunyoni tinglar (Tanlangan asarlar) / Toshkent, „Nihol“, 2008. - 28 b
4. Maksud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983 y.
5. Shayxzoda Maksud. Atokli xalg shoiri. „Lenin uchkuni—, 1956, 18 may (o‘zbekcha)
6. S. Mirvaliyev, R. Shokirova “O‘zbek adiblari” G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti T., 2016. [http://web-journal.ru/ Часть-16\\_ Том-1\\_](http://web-journal.ru/Часть-16_Том-1_)

